

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

11-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ S/11 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI*Rahmankulova Adolat Xushbakovna*

ПРОБЛЕМЫ РЕАБИЛИТАЦИИ НАСИЛЬСТВЕННО ПЕРЕСЕЛЕННЫХ НАРОДОВ

В УЗБЕКИСТАН В 1930 – 1940-е ГОДЫ..... 11-19

Назирхожаев Мухаммадалихожа Касимхожаевич

ФОРМИРОВАНИЕ И ОРГАНИЗАЦИЯ ЛАГЕРЕЙ ДЛЯ СОДЕРЖАНИЯ ЯПОНСКИХ

ВОЕННОПЛЕННЫХ В СОВЕТСКОМ СОЮЗЕ..... 20-29

Kaypova Malika Dautbay qizi

MUSTAQILLIQ YILLARIDA TURIZM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR..... 30-33

Sobirova Dilfuza, Mirzaaxmedov Xabibullo, Odiljonov Xayitali

QO'QON XONLIGINING DIPLOMATIK ALOQALARI 34-39

Raupova Mushtariybegim Ilxomjon qizi

TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGINING MA'MURIY-HUDUDIIY BOSHQARUVI

TARIXSHUNOSLIGI 40-47

Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы

ДИПЛОМАТИЯ И ТОРГОВЛЯ НА ПЕРИФЕРИИ ИМПЕРИЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ

ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ

МУХАММАД РАХИМХАНА I (1806–1825) 48-54

Рузибоев Самандарбек, Ахмадбекова Ўғилой

НАУЧНО-ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ АБУ РАЙХОНА БЕРУНИ

«АЛ-АСАР АЛЬ-БАКИЯ»: МЕТОДОЛОГИЯ, ИСТОЧНИКИ И КУЛЬТУРНО-

ХРОНОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ 55-64

Tilovov Mirqosim Amanturdiyevich

OLTINSOY TUMANI ARXEOLOGIK XARITASI 65-70

Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li

O'ZBEKISTONDA NEFT VA GAZ SANOATI TARIXI (1900-1950 YILLAR) 71-76

Abdurasulov Akmaljon

TURKISTONDA MATBAACHILIKNING VUJUDGA KELISHIDAGI HAMKORLIK

ALOQALARI TARIXI..... 77-86

Abatov Aydos

QORAQALPOG'ISTONDA SANOATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH

BOSQICHLARI (XX ASR II YARMI) 87-90

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI*Pirmatova Farangiz Ma'rufjonovna*

THE EFFECTS OF GREEN ECONOMY IMPLEMENTATION ON ECONOMIC GROWTH

IN DEVELOPING COUNTRIES..... 91-99

Jumabayev Adilbek Bazarbayevich

WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF REGIONAL ECONOMIC POTENTIAL 100-107

<i>Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o'g'li</i> BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NAZORATNI RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH	108-114
<i>Fayzieva Dilyora Shamsitdin kizi,</i> INSTITUTIONAL PRISM OF DIGITAL DIVIDENDS: THE IMPACT OF HUMAN CAPITAL AND "ANALOG COMPLEMENTS" ON THE DYNAMICS OF SOCIO-ECONOMIC INEQUALITY.....	115-123
<i>Турдыев Гайрат Ялгашевич</i> РАЗВИТИЕ АВТОКОЛОНИ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В УСЛОВИЯХ ТРАНСПОРТНЫХ РЕФОРМ: ИСТОРИЧЕСКИЙ И СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАПЫ.....	124-129
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Xolmirzaev Nodirjon Nizomjonovich</i> SHAHAR AHOLISINING IJTIMOY MUAMMOLARINING IJTIMOY FALSAFIY TAHLILI ..	130-134
<i>Kenjayeva Dilrabo Rominovna</i> INSONIYAT TARIXI VA DINIY BAG'RIKENGLIK	135-139
<i>Karimov Raxmat Raxmanovich</i> СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МЕЖЦИВИЛИЗАЦИОННОЙ ФИЛОСОФИИ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	140-146
<i>Ergashev Urolbek Berkinovich</i> NAZARIY FALSAFANI TASNIFLASHDA AHMAD TOSHKO'PRIZODA YONDASHUVI.....	147-151
<i>Raximdjanova Dilnavoz Sunnat qizi</i> IBN RUSHDNING TAFAKKUR ERKINLIGI HAQIDAGI QARASHLARI.....	152-155
<i>Abdunazarov Lutfillo Mamanovich</i> YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURATI	156-160
<i>Tangirov Nizom Abduraxmonovich</i> NOOSFERA VA BARQAROR RIVOJLANISH PARADIGMASINING FALSAFIY-METODOLOGIK ASOSLARI	161-166
<i>Yusupova Nargiza Ro'stamovna</i> O'ZBEK ETNOMUSIQASIGA OID TARIXIY MANBA VA MUTAFAKKIRLAR ETNOMUSIQA BORASIDAGI QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI.....	167-172
<i>Xudoykulov Azamat Beshumovich</i> MA'NAVIY BARKAMOL YOSHLAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA G'OYAVIY TARBIYANING O'RNI	173-177
<i>Xamdamov Behzod</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR DUNYOQARASHIDA VATANPARVARLIK G'OYALARINING FALSAFIY-TARIXIY ASOSLARI	178-185
<i>Bekchanov Sanjar Ibragimovich</i> "MODERNIZATSIYA" TUSHUNCHASINING IJTIMOY-FALSAFIY MOHIYATI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA MILLIY KONSEPSIYALAR.....	186-190
<i>Adizov Azim Tolibovich</i> IJTIMOIY KONFRONTATSIYANING TUZILISHI VA DINAMIKASI.....	191-196

<i>Eshmurodov Nabillo</i> GLOBALLASHUV JARAYONIDA SHAXS MA'NAVİYATINING TRANSFORMATSIYASI VA BEGONALASHUV MUAMMOSI	197-201
<i>Yokubov Suxrob Firdavsovi</i> TASAVVUF TA'LIMOTINING G'OYAVIY MANBALARI	202-206
<i>Najimidinova Dilnoza Gulomjonovna</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK MILLIY OILASINING IJTIMOIY-FALSAFIY MASALALARI	207-210
<i>Otokulov Abror Sobirkulovich</i> JAMIYATDA MA'NAVİY-AXLOQIYLIKNI YUKSALTIRISHDA SHAXS MAS'ULIYATINI OSHIRISH OMILI	211-217

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Maxamadaliyeva Zuxra Baxrom qizi, Adilova Nasiba Raximboy qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MADANIY METAFORALARNING MOHIYATI	218-222
<i>Xusainova Zilola Yuldashevna, Yangibayeva Surayyo Gulumboyevna</i> DIAXRON KORPUS ALGORITMLARI	223-228
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> POLITICAL EXILE AND PERSONAL IDENTITY IN LORD BYRON'S LIFE AND WORK	229-233
<i>Karimova Ozodaxon Avazxon qizi</i> A LINGUO-PRAGMATIC STUDY OF INFORMAL SPEECH IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES: COMPARATIVE ANALYSIS OF COMMUNICATIVE STRATEGIES, SOCIOCULTURAL CONTEXTS, AND PRAGMATIC FUNCTIONS	234-240
<i>Айтмуратова Турсынай Маратовна</i> КОНЦЕПТ «ТРУД» В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ	241-244
<i>Fayzullayeva Zebuniso Abdukarimovna</i> KONYUNKTIVNING SEMANTIK-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI	245-248
<i>Sodikova Vasilakhon, Gavharoy Isroiljon qizi</i> THE ISSUES OF INFORMATION SECURITY AND RELIABILITY IN MODERN JOURNALISM	249-258
<i>Холикова Замира</i> СРАВНИТЕЛЬНО-СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С КОМПОНЕНТОМ-ЗООНИМОМ «СОБАКА» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ	259-272

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Турсунова Маликахон Улугбековна</i> СООТНОШЕНИЕ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ РАНГОВ С КВАЛИФИКАЦИОННЫМИ КЛАССАМИ ДОЛЖНОСТЕЙ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ЗНАЧЕНИЯ КЛАССОВ И РАНГОВ В ДИПЛОМАТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	273-286
<i>Karaketova Dilnoza Yuldashevna</i> JINOYAT SUBYEKTINI TAVSIFLOVCHI BELGI SIFATIDA RETSIDIV	287-294
<i>Мируктамова Феруза Лутфуллаевна</i> ПРАКТИКА ЗАРУБЕЖНЫХ ГОСУДАРСТВ ПО ЗАЩИТЕ ПРАВ И БЕЗОПАСНОСТИ ДЕТЕЙ ОТ ИНФОРМАЦИОННЫХ УГРОЗ	295-300

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i> MULK HUQUQIDAN VOZ KECHISHNING AYRIM MASALALARI.....	301-309
<i>Akayeva Marapat Abduxalikovna</i> FUQAROLIK HUQUQIDA ASSOSSIZ BOYLIK ORTTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA ...	310-317
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ENERGETIKA SEKTORIDA ATROF-MUHITGA TA'SIRNI BAHOLASH TIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING HUQUQIY SHART-SHAROITLARI.....	318-326
<i>Jiyenbayev Baxadir Ospanovich</i> EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA'MINLASHGA DOIR HUQUQIY NORMALARNING ILMIY VA NAZARIY MOHIYATI	327-332
<i>Шомуратова Пальмира Комил қизи</i> РЕАЛИЗАЦИЯ ПРИНЦИПА СОСТЯЗАТЕЛЬНОСТИ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ: ПРЕДЕЛЫ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСИЛЕНИЯ	333-339
<i>Калдарбеков Асылжан Оспанович</i> РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ И ПРАВОВАЯ ОХРАНА ЗЕМЕЛЬ ЛЕСНОГО ФОНДА: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ОПЫТ КАЗАХСТАНА И УЗБЕКИСТАНА	340-351
<i>Istamova-Fayzullaeva Dilafruz Oybek qizi</i> SOMATIK HUQUQLARNING NAZARIY TALQINI: GERMANIYA VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI ASOSIDA QIYOSIY HUQUQIY TAHLIL	352-359
<i>Urakov Djaxongir Rajabovich</i> PROKURATURA ORGANLARINING YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTİKASINI AMALGA OSHIRISH BORASIDA HAMKORLIK FAOLIYATI	360-365
<i>Байтурова Ауда Набиевна</i> СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭКОТУРИСТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	366-373
<i>Xushvaqtov O'tkir Temirovich</i> VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGI TUSHUNCHASI NAZARIY VA QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI	374-382
<i>Mustafaqulov Dilshod Salomovich</i> NORMA IJODKORLIGI JARAYONIDA QONUNIYLIK PRINSIPI	383-389
<i>Nomazov Ixtiyor Ismailovich</i> ISBOT QILISH ELEMENTI SIFATIDA KO'RSATUVLARNI OLDINDAN MUSTAHKAMLAB QO'YISH	390-394
<i>Xoliqnazarov Farhod Bozor o'g'li</i> INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI JINOIY-HUQUQIY HIMOYA QILISH MASALALARI ...	395-399
<i>Normuratov Aktam Tulaboy o'g'li</i> OLIIY TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JALB QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	400-403
<i>Шомахсудов Шоакрам Шомуратович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ОСОБЕННОСТИ ПОЛУЧЕНИЯ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ КОМПЬЮТЕРНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРИ РАССЛЕДОВАНИИ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ	404-411
<i>Rasulov Baxtiyor Shavkatovich</i> O'ZBEKISTONDA ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH VA EKOLOGIK NAZORATNI KUCHALTIRISH MASALALARI.....	412-418

<i>Javlijeva Gullola Abdurahim qizi</i> IJARA MEHNATI — NOTIPIK MEHNAT MUNOSABATLARINING SHAKLI SIFATIDA.....	419-425
<i>Babaeva Irodakhon Erkinjon qizi</i> ISSUES OF IMPLEMENTING INTERNATIONAL LEGAL NORMS IN THE FIELD OF CLIMATE CHANGE INTO THE NATIONAL LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	426-434
<i>Ядгаров Шахрух</i> ЮРИДИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК СУБЪЕКТА МЕЖДУНАРОДНОГО ПРАВА.....	435-439
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING FIZIKA FANIDAN NOSTANDART TOPSHIRIQLARNI BAJARISH ORQALI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH.....	440-446
<i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i> SUN'IY INTELLEKTNING TA'LIMDAGI O'RNI.....	447-451
<i>Xolmirzayeva Gulbahor Baxodirovna</i> MAKTABGACHA TA'LIMDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARNI MILLIY MODEL BILAN UYG'UNLASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	452-457
<i>Raximova Lolaxon Abduraximovna</i> TALABALARNING KLINIK QAROR QABUL QILISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA BIOFIZIK DIAGNOSTIKA TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATIV O'QITISH METODIKASI.....	458-462
<i>Toshmamatova Munisa Toshmamatovna</i> UMUMTA'LIM FANLARIDAN DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING MAVJUD HOLATI TAHLILI.....	463-466
<i>Raximdjanova Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna</i> INTERCULTURAL COMPETENCE AND REFLECTIVE LEARNING IN GLOBALIZED HIGHER EDUCATION: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS.....	467-473

Received: 1 December 2025
Accepted: 15 December 2025
Published: 30 December 2025

Article / Original Paper

HUMAN HISTORY AND RELIGIOUS TOLERANCE

Kenjayeva Dilrabo Rominovna

Candidate of Philosophy, Associate Professor.

University of Business and Science

Tashkent, Uzbekistan

Abstract. This article analyzes, from a philosophical perspective, the formation of numerous cultural and religious traditions throughout human history. The importance of religious and spiritual harmony among different peoples, demonstrated through historical examples of religious tolerance, is highlighted. It is also emphasized that religious tolerance fosters respect, understanding, and cooperation among people of diverse beliefs and views, serving as an important factor in ensuring peace and stability within society. The purpose of the article is to promote among young people an understanding of religious and cultural diversity and to educate them in the spirit of tolerance.

Keywords: religious tolerance, tolerance, faith, education, civil society, political stability.

INSONIYAT TARIXI VA DINIY BAG'RIKENGLIK

Kenjayeva Dilrabo Rominovna

falsafa fanlari nomzodi, dotsent.

University of business and science

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada insoniyat tarixi davomida ko'plab madaniy va diniy an'analar shakllanganligi falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Turli xalqlar orasida diniy va ma'naviy hamjihatlikning ahamiyati diniy bag'rikenglikka bog'liqligi tarixiy misollar yordamida yoritilgan. Shuningdek, diniy bag'rikenglikning turli e'tiqod va qarashlarga nisbatan hurmat, tolerantlik va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishi, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlaydigan muhim omil ekanligi ta'kidlangan. Maqsad, yoshlar tafakkuriga diniy va madaniy xilma-xillikka oid tushunchalarni yetkazish va ularni bag'rikenglik ruhida tarbiyalashdan iborat.

Kalit so'zlar: diniy bag'rikenglik, tolerantlik, e'tiqod, ta'lim-tarbiya, fuqarolik jamiyati, siyosiy barqarorlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI11Y2025N18>

Kirish. Insoniyat tarixi — bu nafaqat madaniyat va ilm-fan taraqqiyoti tarixi, balki e'tiqodlar, dinlar va diniy qadriyatlar tarixidir.

Dunyo xalqlari qadimdan turli dinlarga e'tiqod qilgan, ularning har biri insonni ezgulikka, tinchlikka, sabr-toqat va bag'rikenglikka chorlagan.

Bugungi kunda diniy bag'rikenglik masalasi insoniyat hayotida dolzarb mavzulardan biridir. Chunki zamonaviy dunyoda turli din, millat, madaniyat va e'tiqod vakillari bir hududda yashamoqda. Ular o'zaro hurmat, tinchlik va hamjihatlikda yashashni o'rganishi zarur.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar sharhi. Arxeologik topilmalar shuni ko'rsatadiki, insoniyatning dastlabki bosqichlarida odamlar tabiat hodisalarini tushuntira olmagan uchun ularni «ilohiy kuch» deb bilganlar.

Ular quyosh, oy, yulduz, shamol, suv, daraxt kabi narsalarga sig'ingan. Bu davr «animizm», ya'ni narsalarga jon kiritish e'tiqodi davri deb ataladi.

Vaqt o'tishi bilan inson tafakkuri rivojlandi, jamiyatda tartib va boshqaruv tizimi paydo bo'ldi. Shu bilan birga, diniy qarashlar ham murakkablashdi. Qadimgi Misrda Osiris, Ra, Isida, Hindistonda Brahma, Vishnu, Shiva kabi ilohlar, Gresiyada Zevs, Afrodita, Apollon kabi xudolar e'tiqod markaziga aylangan.

Ammo bu ko'pxudolik (politeizm) o'rnini keyinchalik yakkaxudolik (monoteizm) egallay boshladi.

Yakkaxudolik g'oyasi birinchi bo'lib yahudiylikda, so'ng xristianlik va islomda o'z ifodasini topdi.

Diniy bag'rikenglik tushunchasi va mohiyati.

Diniy bag'rikenglik — bu boshqa din, e'tiqod va fikr sohiblariga hurmat bilan munosabatda bo'lish, ularni kamsitmaslik, ularning huquqlarini tan olish va ularni tushunishga intilish demakdir. Bu tushuncha qadimdan mavjud. Masalan: Kir II (Bobil podshosi) eramizdan avvalgi VI asrda diniy erkinlikni e'lon qilib, barcha xalqlarga o'z e'tiqodini saqlashga ruxsat bergan. Uning «Kir silindri» inson huquqlari tarixidagi ilk hujjatlardan biri hisoblanadi.

Islom dini payg'ambari Muhammad (s.a.v.) Madina shahrida musulmonlar bilan birga yahudiy va nasroniy jamoalar bilan tinchlik shartnomasini tuzgan. Bu hujjat diniy bag'rikenglikning amaliy namunasi bo'lgan.

Yevropa Ma'rifatparvarlik davrida (XVIII asrlar) faylasuflar, xususan Jon Lokk va Volter diniy erkinlik va fikr mustaqilligini himoya qilganlar.

Diniy bag'rikenglikning tarixiy ahamiyati. Tarixdan ma'lumki, insoniyatning eng buyuk sivilizatsiyalari aynan turli madaniyat va din vakillarining hamkorligi natijasida gullab-yashnagan. Masalan: Buxoro va Samarqandda musulmon, yahudiy, nasroniy va buddaviy olimlar birgalikda ilm bilan shug'ullangan.

Andalus (Ispaniya)da VIII–XII asrlarda islomiy, xristian va yahudiy olimlar birgalikda yashab, falsafa va matematika, tibbiyotda katta yutuqlarga erishganlar. Bag'doddagi «Baytul-hikma» (Donishmandlar uyi)da turli e'tiqoddagi olimlar yunon, hind, fors va arab tillaridan tarjimalar qilib, ilmni rivojlantirganlar. Bu holatlar shuni ko'rsatadiki, bag'rikenglik – taraqqiyotning asosiy sharti hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Afsuski, tarixda diniy bag'rikenglik yo'qolgan davrlar ham bo'lgan. Masalan: O'rta asrlarda Yevropada «inkvizitsiya» davrida e'tiqoddan chetga chiqqan deb topilganlar jazolangan. Taniqli faylasuf Djordano Bruno Rim inkvizitsiyasi tomonidan e'tiqodsizlikda ayblanib, 1600-yil 17-fevralda Rimda tirik holda olovda yoqib yuborilgan. Uning o'limiga sabab bo'lgan asosiy ayblovlari esa inkor etib bo'lmaydigan diniy dogmalarga qarshi chiqqanligi va o'zining falsafiy qarashlari bo'lgan.

Shuningdek, din nomidan urushlar olib borilgan, turli e'tiqoddagi insonlar dini sababli kamsitilgan, diniy ta'limotlarning asl ma'nosi g'arazli maqsadlarda soxtalashtirilib, buzib, noto'g'ri talqin qilib kelingan.

Nasroniylik tarixida insoniyat uchun eng fojiali va ayanchli davr hisoblangan Salb yurishlari bunga yorqin misol bo'la oladi. XI asr oxirida Yevropa nasroniylari Xudoning marhamatiga musharraf bo'lgan Falastinni “saqlab qolish” uchun Salb yurishlari o'tkazishga qaror qilishgan. Salbchilardan biri – Raymond Agilskiyning yilnomasida mana bunday mazmundagi maqtanchoqlik bilan yozilgan bitiklar bor edi: “... odamlarimizning eng rahmdillari

dushmanlarning kallasini sapchadek uzishdi. Ayrimlari g'animlarni tiriklay o'tga tashlashar, keyin uzoq qiynab, sekin o'ldirishar edi. Shahar ko'chalari tanadan uzilgan bosh, qo'l-oyoqlar g'aramiga to'lib ketdi. Shunday to'ldiki, ana shu tana a'zolari va kallalarga qoqilmasdan ko'chadan yurish ancha mushkul bo'lib qoldi. Gapning indallosini aytsam, Sulaymon podsho ibodatxonasi oldida to'kilgan qon daryosi odamlarimizning tizzasidan yuqoriroqqa chiqib ketdi". [1]

Yilnomalardagi ma'lumotlarga qaraganda, salbchilarning qo'shinlari shaharda ikki kun ichida 40000 ga yaqin musulmon va yahudiylarni yovuzlarcha qiymalab o'ldirganlar. Vaholanki, salbchilarning vahshiyliги nasroniylikning siyosiy doktrinasiga mutlaqo zid edi. Injil nasroniylikni insoniyatga yuborilgan Ilohiy "muhabbat vahiysi" deb ta'lim beradi. Payg'ambar Iso alayhissalom o'z izdoshlariga shunday murojaat qilgan: "Dushmanlaringizni sevinglar... sizga jabr-zulm o'tkazganlarning haqqiga ibodat qilinglar..." [2] "Bir chakkangga urganga ikkinchisini ham tut". [3]

Tarixdagi bu hodisalar insoniyatni orqaga tortgan, fan, madaniyat va insoniylik qadriyatlariga zarar yetkazgan.

Hozirgi kunda ayrim davlatlar tomonidan xalqaro terrorizm va ekstremizm ekspansiyasining faollashuvi, millatlararo va konfessiyalararo mojarolarning kuchayayotganligi g'oyaviy – mafkuraviy kurashning yangi pallaga kirganligini ko'rsatmoqda. Shu ma'noda, zamonaviy global dunyoda diniy bag'rikenglik insoniyat tinchligi uchun asosiy shartlardan biridir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) barcha davlatlardan diniy erkinlik va bag'rikenglikni hurmat qilishni talab etadi. UNESCO esa madaniyatlararo muloqot va o'zaro tushunishni rivojlantirish dasturlarini amalga oshiradi. Shuningdek, turli din vakillarining xalqaro uchrashuvlari, forumlar va tinchlik anjumanlari o'tkazilib, bag'rikenglik g'oyasi targ'ib qilinmoqda.

Markaziy Osiyo qadimdan turli din va madaniyatlarning kesishgan markazi bo'lgan. O'zbekiston hududida islom, buddaviylik, zardushtiylik, nasroniylik va yahudiylik kabi dinlar mavjud bo'lgan. Bugungi kunda mamlakatimizda vijdon erkinligi Konstitutsiya bilan kafolatlangan.

Toshkentda muntazam «Dinlararo bag'rikenglik va tinchlik» mavzusida xalqaro konferensiyalar o'tkazilib kelinadi. Turli konfessiyalar (musulmonlar, pravoslavlar, katoliklar, yahudiylar, protestantlar) erkin faoliyat yuritmoqda. Bu esa O'zbekistonni diniy totuvlik va hamjihatlik yurti sifatida tanitmoqda.

Xulosa qilib aytganda, bag'rikenglikning falsafiy asoslari va mohiyati insonning o'z-o'zini anglashida, boshqalarga nisbatan rahm-shafqat bilan qarashida namoyon bo'ladi.

Falsafiy nuqtai nazardan, bag'rikenglik quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Insonparvarlik — har bir inson qadrli va hurmatga loyiq.
2. Adolat — barcha din vakillari teng huquqlarga ega.
3. Hurmat va sabr-toqat — boshqalar e'tiqodini tushunish, ularni qabul qilish.
4. Dialog — turli e'tiqod vakillari o'rtasida muloqot orqali tinchlikni saqlash.

Insoniyat tarixi shuni ko'rsatadiki, bag'rikenglik — bu nafaqat diniy, balki ijtimoiy, siyosiy va madaniy barqarorlikning kafolatidir. Bag'rikenglik bor joyda urush, adovat va nafrat bo'lmaydi, u yerda faqat tinchlik, taraqqiyot va insoniylik bo'ladi.

Har bir inson, ayniqsa yosh avlod, diniy bag'rikenglik ruhida tarbiyalansa, jamiyat yanada adolatli va siyosiy barqarorlikka erishadi.

Shu sababli, biz har birimiz o'z atrofimizdagi kishilarni ularning dini, millati, rangi yoki qarashlaridan qat'i nazar, hurmat qilishni o'rganishimiz zarur.

O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov tinchlikning hozirgi va kelajak hayotimiz uchun ahamiyatini quyidagicha ta'riflaydi: "Biz – Sharq farzandlarimiz. Sharq mamlakatlarining qayeriga bormang, odamlar bir-biri bilan uchrashganda, avvalambor, "Assalomu alaykum!" deyishadi. Ushbu kalom arabchadan olingan bo'lib, "Sizga tinchlik yor bo'lsin" degan ma'noni anglatadi. "Salom", ya'ni "tinchlik" so'zi Qur'oni Karimda 40 marta uchraydi. Bu muqaddas kitobning oyatlaridan birida shunday deyiladi: "Mehribon Parvardigor tomonidan odamlarga olqish ma'nosida "tinchlik" so'zi aytilur. Ko'rinib turibdiki, tinchlik, totuvlik, hamkorlik g'oyasi Allohga ham, bandalariga ham xush keladigan ezgu g'oyadir". [4]

Bu – yurtimiz xalqlarining Diniy bag'rikenglik borasida katta tajribaga ega bo'lganidan dalolat beradi. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda 16 konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Ularga o'z diniy marosimlarini o'tkazish va mamlakat hayotida faol ishtirok etish uchun zarur barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Bu boradagi huquqiy asoslar O'zbekiston Konstitutsiyasida, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunda mustahkamlab qo'yilgan.

Diniy bag'rikenglik – turli diniy e'tiqoddagi kishilarning olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashi, kishilik jamiyati ravnaqi yo'lida xizmat qilishini anglatadigan tushuncha. Hozirgi vaqtda bu ezgu g'oya nafaqat dindorlar, balki jamiyatning barcha a'zolari o'rtasidagi hamkorlik va bahamjihatlikni nazarda tutadi. Diniy bag'rikenglik tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, ozod va obod Vatan qurishning muhim shartidir.

Qadimdan diyorumizda buddaviylik, zardushtiylik, nasroniylik, yahudiylik, islom dinlari yonma-yon yashab kelgan, madaniyat markazlari hisoblangan shaharlarimizda masjid, cherkov, sinagogalar faoliyat ko'rsatgan. Ularda turli millat, elat va dinga mansub bo'lgan xalqlar, qavmlar o'z diniy amallarini emin-erkin ado etgan. Vatanimiz tarixining eng murakkab, ziddiyatli, og'ir davrlarida ham yurtimizdagi mavjud din vakillari o'rtasida diniy asosda mojarolar bo'lgan emas.

Ma'lumki, dunyodagi dinlar asl mohiyatiga ko'ra ezgulik g'oyasiga asoslanadi, kishilarni halollik, poklik, mehr-shafqat, birodarlik va bag'rikenglikka da'vat etadi. Inson hayotining asl maqsadi inson va tabiatga nisbatan odilona, oqilona munosabatda bo'lish, hamisha yaxshi, savobli ishlarni amalga oshirishdan iboratdir. Shunday ekan, haqiqiy diniy qarashlar ortida diniy bag'rikenglik yotadi.

UNESCO diniy bag'rikenglik muammosiga alohida e'tibor berib, 1995 yilni BMTning bag'rikenglik yili deb e'lon qildi. O'sha yili 16 noyabrda 185 davlat ishtirokida Parijda Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi qabul qilindi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ham bu sohada ulkan ishlar amalga oshirildi.

Bugungi kunda respublikamizda ikki mingdan ziyod diniy tashkilot, shu jumladan, O'zbekiston Musulmonlari idorasi, Qoraqalpog'iston Musulmonlari qoziyati, Toshkent Islom instituti, 10 ta madrasa va 2003 ta masjid, Rus pravoslav cherkovi, Toshkent va O'rta Osiyo Yeparxiyasi, Pravoslav seminariyasi, Rim-katolik cherkovi, Yevangel xristian baptistlar cherkovlari ittifoqi, to'liq Injil xristianlar markazi, Xristian seminariyasi, O'zbekiston Bibliya jamiyati, 162 ta xristian cherkovi, 8 ta yahudiy va 8 ta bahriy jamoasi, 1 ta Krishnani anglash jamiyati, 1 ta buddist ibodatxonasi davlat ro'yxatidan o'tgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning tashabbusi bilan, diniy ekstremizmga qarshi kurashish va diniy bag'rikenglikni targ'ib qilish davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylangan.

Zero shunday ekan, o'zbek xalqi g'oyaviy – mafkuraviy tahdidlarga nisbatan ilgari so'rilgan “fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish kerak” degan tamoyillarga amal qilgan holda jamiyatda xavfsizlikni, millatlararo totuvlikni va diniy bag'rikenglikni saqlab qolishga harakat qilmoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Horun Yahyo. Islom terrorni la'natlaydi. T.: “Movarounnahr” 2003. B. 37-38.
2. Matto bayon etgan Injil, 5-44.
3. Luqo bayon etgan Injil, 6-29.
4. I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 3. - T.; O'zbekiston, 1996.- B. 53.
5. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.-416 b.
6. Saifnazarov I., Sultonov T., Ilxomjonov L, Xalimmetova R. Dinshunoslik. O'quv – qo'llanmasi.Toshkent: TDIU,2019.-180 b.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/11 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).